

**BORLIQ FALSAFASI VA UNING AHAMIYATI****Siddiqova Umida**

Denov tadbirkorlik va pedagogika insituti

Pedagogika fakulteti Psixalogiya talim yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola asosan falsafa fanida borliq tushunchasining paydo bo'lishi, unga oid Sharq va G'arb allomalarning qarashlari, asarlari va fanga kiritgan nazariyalari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** falsafa, ontologiya, borliq, yo'qlik, tushuncha, qarashlar.

**Аннотация:** В данной статье в основном речь идет о возникновении понятия существования в науке философии, связанных с ним взглядах, работах и теориях ученых Востока и Запада.

**Ключевые слова:** философия, онтология, существование, небытие, понимание, взгляды.

**Abstract:** This article is mainly about the emergence of the concept of existence in the science of philosophy, the views, works and theories introduced by Eastern and Western scholars about it.

**Key words:** philosophy, ontology, existence, non-existence, understanding, views

**KIRISH:**

Faylasuflar "mavjudlik" va "yo'qlik" to'g'risida qadim zamonlardan beri babs yuritib keladilar. Ular borliqning paydo bo'lishi, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko'plab asarlar yozib qoldirganlar. Aslida borliq nima? To'g'ri bu savol judda oddiydek ko'rindi ammo, hali hamma odamlarni qoniqtiradigan javob topilmadi. Bu holat borliq haqidagi turli nuqtai nazardan qarashlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, ba'zi faylasuflar borliqni moddiylik, moddiy jismlar bilan o'zaro chambarchas deb o'ylashadi va shunday tushuntiradilar. Ularning fikricha, borliq faqat ob'ektiv voqelikni qamrab oluvchi tushunchadir. Tafakkur, inson tafakkuri va tasavvurimiz borliq tushunchasidan chetda qolsa, bunday tushunchalar obyektiv voqelikdan kelib chiqqan deb javob beradilar. Falsafa fanining borliq haqidagi ta'limotini – o'rganuvchi bo'lim ontologiya deb ataladi. Ontologiya so'zi yunoncha ontos ( mavjudlik) va logos (ta'limot) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "mavjudlik haqidagi ta'limot", ya'ni borliq haqidagi va uni o'rganuvchi fan ma'nosini anglatadi. Olam va borliq haqidagi fikr va masalalarni shu soha o'rganadi. Bu tushunchani falsafa faniga birinchi bo'lib 1513 – yil R.Gokleniusning "Falsafa lug'ati" asarida, keyinchalik esa X.Volf (1679-1754) ning falsafa faniga oid darsligida qo'llanilganligiga qaramay, ulardan ham avvalroq Yunon faylasuflari ham ontologiyaga oid g'oyalarni ilgari surib kelishgan. Yo'qlik – bu hech narsadir. Hamma bor narsani hech narsaga aylantiruvchi, hamma narsaning ibtidosi (boshlanishi) ham, intihosi (tugashi) ham bu yo'qlikdir. Ya'ni yo'qlik bu cheksizlik, tugallanmaslik va boqiyilikdir. Yo'qlik tugallangan joyda borliq paydo bo'ladi. Xullas borliqni paydo qiluvchi ham, batamom yo'q qiluvchi ham bu yo'qlikdir. Borliq shunday mavjudlikki, u yo'qlikdan yo'qlikkachadir. Tarixdan biz shuni bilamizki, borliq haqida olim va faylasuflar turlicha fikrlar yuritishgan. Markaziy Osiyo tuprog'ida yaratilgan zardushtiylik ta'limotida borliq quyosh va olovdan tashkil topgan hisoblanadi, alangalanib yonib turgan olov bu borliqning asosiy mohiyatidir, deb hisoblangan. Bu g'oya negizida asosan olov

yotadi va u borliqqa borlik mavjudlik baxsh etadi. Yevropa olimlari David Yum va Jorj Berkli borliqni sezgilarimiz majmuasi deb hisoblashgan. Xegel borliqqa mavhumlik, mutloq ruhning namoyon bo'lishi, deya ta'riflagan. Naturfalsafiy qarashlarda esa borliqni hozirgi zamonga bog'lab tushuntirishgan. Borliq ancha keng doiradagi tushuncha hisoblanib o'zida butun mavjudlikni, uning oldingi, hozirgi va kelajagini ham qamrab olgan. Faylasuflar hammaga borliqni tushuntirish uchun uni yo'qlik tushunchasi bilan solishtirib, farqlarini aniqlab o'rganish orqali borliqning asosiy mohiyatini ochishga harakat qilishgan. Materialistik adabiyotlarda esa borliqni ob'ektiv reallik bilan ya'ni materiya bilan o'xshatib aynanlashtirib tushuntiradilar. Borliq shunday keng qamrovli umumiy tushunchaki, u o'zida ob'ektiv va sub'ektiv aniqlikni, paydo bo'lган va hali paydo bo'lмаган olamlarni, moddiylik va ma'naviylikni, o'tmish va keljakni, o'limni va hayotni, ruh va jismni kabi tushunchalarni jamlab olgan. Borliq tushunchasi kengligini yana bir belgilar orqali aniqlashimiz mumkin. Ular : olam, odam, g'oyalar, o'yayollarimizning barchasi birday mavjud va shular borliq tushunchasini tashkil etadi. Borliq haqidagi muammo falsafada markaziy o'rin egallaydigan muammolardan biridir. Yana eng qiziq jihat shundaki, falsafa faniga tegishli bo'lган barcha muammo va masalalar borliq falsafasining muammosi bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir. Rostdan ham, borliq barcha falsafiy qarashlarda muhim ahamiyatga ega bo'lган, uning muammosi falsafa fanidagi barcha dunyoqarash gnoseologik va metodologik muammolarning asosidir. Borliqning asosiy sohalari: tabiat, jamiyat va ong. Bu sohalarni birlashtirib turadigan umumiy birlik bu – ularning mavjudligida. Bu haqida A.G.Spirkin shunday deydi: " Barcha mavjud narsalar borliqqa mansubdir. Ularga moddiy jismlar ham, barcha ( fizik, ximik, geologik, biologik, ijtimoiy, psixologik, ma'naviy) jarayonlar ham, ularning xossalari, aloqalari va munosabatlari ham kiradi. U chuqur hayolotning mevasi bo'lган afsona va ertaklar, xatto bemorning alahsirashlari ham, borliqning qismi bo'lган ma'naviy reallik sifatida mavjuddir". Shunday qilib, "ruh va materiya, hech bo'lмагanda mavjudlik sifatida bir-birlaridan farq ham qilishadi. Agar moddiylik va ma'naviylikni bir-biriga solishtirib ko'radigan bo'lsak, moddiylik sub'ektdan alohida mustaqil ravishda mavjud bo'lsa, ma'naviylik esa unga bog'liq ravishda mavjud bo'ladi. Xullas, borliq bu tiriklik, mavjudlikning muayyan belgilarini o'z ichiga olgan tushunchadir

**XULOSAM:** Borliq falsafasi falsafaning markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, u mavjudotning mohiyati, shakllari va chegaralarini o'rganadi. Ushbu tushuncha insonni olamni tushunishga, voqelik va hodisalarning o'zaro bog'liqligini anglashga yo'naltiradi. Borliqning fizik, metafizik, ruhiy va ijtimoiy jihatlarini tadqiq qilish orqali inson o'z hayotining ma'nosini va undagi o'rnini chuqurroq idrok etadi.

Borliq falsafasining ahamiyati shundaki, u inson ongini rivojlantirib, ilmiy va madaniy taraqqiyot uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Ushbu falsafa insonni faqat tashqi dunyo bilan emas, balki ichki dunyo bilan ham uyg'unlikda yashashga undaydi. Shu bois, borliq falsafasi hayotning turli jabhalarida qarorlar qabul qilish, axloqiy tamoyillarni belgilash va yashashning mohiyatini tushunishda muhim rol o'ynaydi.

Borliqning anglash, nafaqat falsafiy, balki amaliy hayotiy masala sifatida insonning rivojlanishi va o'zini topishi uchun zarurdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Borliq falsafasi ( ontologiya) <https://fayllar.org/borliq-falsafasi-ontologiya-reja.html>

2. Ontologiya – borliq falsafasi. Dunyon falsafiy tushunish.  
<https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaql-ish-kursishi/item/13264-ontologiya-borliq-falsafasi-dunyoni-falsafiy-tushinish>
3. **To'rayev, K.** Falsafa tarixi va nazariyasi. Toshkent: Sharq, 2004.
4. **Ilyosova, R.** Falsafa: Borliq va ong masalalari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.
5. **Heidegerr M.** Borliq va vaqt. Nemis falsafasi tarjimalari. Toshkent: Movarounnahr, 2017.
6. **Platon.** Davlat va falsafiy dialoglar. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2002.
7. **Aristotel.** Metafizika. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
8. **Mamajonov A., Vafoyev, S.** Falsafiy kategoriyalar: Borliq, ong, haqiqat. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015.
9. **Karimov, I.A.** Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2000.